

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17399269>

PUL MABLAG‘LARI HISOBINI MILLIY BUXGALTERIYA TIZIMIDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY VA AMALIY YO‘NALISHLARI

Umurzakov Dilshodbek Hakimovich

*Dotsent Namangan davlat texnika universiteti “Buxgalteriya hisobi” kafedrası
dilshodbek.acca@gmail.com, +998943037523*

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida pul mablag‘lari hisobini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish zarurati ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot doirasida milliy va xalqaro buxgalteriya standartlari (BHMS va IAS 7) o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinib, 5600 (“Pul ekvivalentlari”) va 5800 (“Qisqa muddatli investitsiyalar”) schyotlari bo‘yicha amaliy nomutanosibliklar aniqlangan.

“NAMANGANDONMAXSULOTLARI” AJ misolida amaliy tahlil o‘tkazilib, pul mablag‘larini cheklangan va cheklanmagan turlarga ajratib hisob yuritishning axborot qiymati oshirishi asoslab berilgan. Shu bilan birga, milliy hisobot tizimini raqamlashtirish va IAS 7 standarti bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pul mablag‘lari, pul ekvivalentlari, likvid aktivlar, xalqaro standartlar, IAS 7, hisobot tizimi, raqamlashtirish, buxgalteriya hisobining islohoti.

KIRISH

Pul mablag‘lari hisobi va ularning hisobotini yuritish har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ektning moliyaviy barqarorligini belgilaydigan muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Mazkur jarayon korxonaning likvidligi, to‘lovga layoqatligi va investitsion jozibadorligi haqidagi aniq axborotlarni shakllantiradi. Ammo amaldagi milliy hisob tizimidagi bir qator metodologik nomutanosibliklar — pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari tushunchalarining aniq ajratilmagani, xalqaro standartlardan farqli qoidalarning mavjudligi — moliyaviy hisobot axborotlarining ishonchliligini cheklab, ularning xalqaro miqyosda taqqoslanish imkoniyatini pasaytiradi. Shuning uchun pul mablag‘lari hisobi va hisobotini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirish bugungi kunda mamlakatda moliyaviy islohotlar tizimining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobot tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator huquqiy va institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-son qaror bilan xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga bosqichma-bosqich o‘tish belgilab berildi [1]. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun (ZRU–404, 2016) orqali hisob yuritishning umumiy tamoyillari belgilab berildi [2], moliyaviy hisobot shakllari esa 140–son buyruq orqali yagona tartibda standartlashtirildi [3]. Shuningdek, 2024-yilda yangi tahrirda qabul

qilingan 9-sonli BHMS ("Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot") xalqaro IAS 7 standartiga moslashtirildi [4]. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va hisobot tizimini shaffoflashtirish PF-6079 "Raqamli O'zbekiston — 2030" va PF-60 "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi" farmonlari orqali qonunan mustahkamlandi [5–6].

Mazkur tadqiqot milliy buxgalteriya tizimini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishning ilmiy va amaliy yo'nalishlarini asoslashga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi — pul mablag'lari hisobini xalqaro amaliyotdagi konseptual yondashuvlar asosida takomillashtirish va uning axborot qiymatini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdir. Buning uchun ishda xalqaro va milliy standartlar qiyosiy tahlil qilindi, "NAMANGANDONMAXSULOTLARI" AJ misolida amaliy hisobot ma'lumotlari o'rganildi hamda cheklangan va cheklanmagan mablag'lar bo'yicha tasnifni joriy etish zarurati ilmiy jihatdan asoslandi. Shu tariqa, maqola moliyaviy hisobotning ilmiy, normativ va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirgan holda milliy amaliyotni xalqaro mezonlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro ilmiy manbalarda pul mablag'lari hisobiga oid tadqiqotlar asosan moliyaviy axborotni ishonchli va foydalanuvchi uchun qadrli qilishga yo'naltirilgan. Jumladan, IAS 7 va IFRS 9 xalqaro moliyaviy hisobot standartlari pul mablag'lari va ularga teng aktivlarni likvidlik darajasi, foydalanish cheklovlari va iqtisodiy mazmuni bo'yicha aniq tasniflashni nazarda tutadi [1]. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi — pul mablag'larining harakati to'g'risidagi axborot orqali korxona faoliyatining barqarorligini baholash hamda kapital aylanishini prognozlash imkoniyatini yaratishdir. Shu nuqtai nazardan, xalqaro amaliyotda pul mablag'lari hisobi faqat buxgalteriya vazifasi emas, balki boshqaruv qarorlari uchun strategik manba sifatida qaraladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida moliyaviy hisobotning shaffofligi va taqqoslanuvchanligiga katta ahamiyat beriladi. Masalan, IAS 7 standarti "cash equivalents" tushunchasini aniq mezonlar bilan belgilab, qiymat o'zgarishi xavfi past bo'lgan, qisqa muddatda naqdlashtirish mumkin bo'lgan aktivlar sifatida ta'riflaydi [1][4]. Milliy adabiyotlarda esa "pul ekvivalentlari" tushunchasi umumiy ma'noda qo'llanilsa-da, uning aniq iqtisodiy chegaralari va baholash usullari etarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli, hisobot axborotini xalqaro formatda taqdim etishda ma'lum nomutanosibliklar kuzatiladi.

Milliy olimlar ichida bu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borganlardan biri — Xaydarov A.R. (2021) bo'lib, u milliy hisob tizimida xalqaro standartlarga moslashishning asosiy to'sig'i sifatida normativ va metodologik bazaning tarqoqligini ko'rsatadi [4]. Muallif ta'kidlashicha, milliy schyotlar rejasi va xalqaro atamalar o'rtasidagi farqlar axborotni talqin etishda turli noaniqliklar va xato baholashlarga sabab bo'ladi. Shu bois, milliy standartlar xalqaro konsepsiyalar bilan raqobatlashish uchun ularning mazmunini milliy iqtisodiy muhitga mos holda integratsiya qilish lozim.

Shu bilan birga, MDH mamlakatlari buxgalteriya maktablari tajribasi ham O'zbekiston amaliyotiga yaqin. Rossiya va Qozog'iston olimlari — Gilyarova, Kozlova, Tkachenko va boshqalar o'z tadqiqotlarida xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka ehtiyotkorlik, shaffoflik va foydalanuvchiga yo'naltirilgan axborot berish tamoyillari asosida joriy etishni taklif qilganlar [1][3]. O'zbekistondagi PQ–4611 qarorining qabul qilinishi aynan shunday ilmiy yo'nalishni amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlagan islohot hisoblanadi. Bu orqali moliyaviy hisobotning xalqaro talablarga yaqinlashuvi uchun huquqiy va metodologik asos yaratildi.

So'nggi yillarda mamlakatda raqamli iqtisodiyot va elektron hisobot tizimlariga o'tish bilan birga, moliyaviy ma'lumotlar almashinuvining sifat darajasi yuqoriladi. Xususan, "Raqamli O'zbekiston — 2030" (PF–6079) dasturi doirasida moliyaviy hisobotlarni elektron formatda taqdim etish va tahlil qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi [5]. Bu yangiliklar pul mablag'lari hisobi faqat buxgalteriyadagi hisob emas, balki raqamlashgan moliyaviy boshqaruv tizimining tarkibiy qismiga aylanganini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotdagi XBRL va iXBRL platformalarining joriy etilishi esa ma'lumotlar sifatini yaxshilash, tahlil jarayonlarini avtomatlashtirish va inson omilini kamaytirish imkonini yaratmoqda.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, pul mablag'lari hisobini takomillashtirish bo'yicha xalqaro ilmiy qarashlar va milliy amaliyot o'rtasida hali etarlicha uyg'unlik mavjud emas. Boshqaruv qarorlari uchun zarur bo'lgan ishonchli moliyaviy axborotni shakllantirish maqsadida milliy standartlarni xalqaro talablarga moslashtirish, normativ bazani yangilash va raqamli hisobot tizimlarini integratsiya qilish zarur. Bu orqali O'zbekistonning moliya bozori sub'ektlari xalqaro maydonda raqobatbardosh va shaffof hisobot yurituvchi tuzilmalar sifatida shakllanishi mumkin [1][4][5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda asosiy ma'lumotlar manbai sifatida milliy me'yoriy hujjatlar, xalqaro buxgalteriya standartlari hamda amaliy korxona hisobotlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Ob'ekt sifatida "NAMANGANDONMAXSULOTLARI" aksiyadorlik jamiyati tanlandi, chunki u sanoat sohasidagi yirik sub'ekt sifatida 2020–2024 yillar davrida moliyaviy hisobotini xalqaro talablarga yaqin shaklda yuritib kelgan. Shu orqali milliy amaliyot va xalqaro modellarni qiyosiy baholash imkoni yaratildi. Ma'lumotlar, asosan, buxgalteriya balansining "Pul mablag'lari va ekvivalentlari" qismi hamda 21–sonli BHMS va IAS 7 "Statement of Cash Flows" talablariga asoslandi [1][4].

Tadqiqot metodologiyasi bir nechta ilmiy yondashuvlar kombinatsiyasiga tayandi. Birinchidan, qiyosiy tahlil usuli orqali milliy va xalqaro me'yoriy bazalardagi farqlar tahlil qilindi; bu orqali xalqaro standartlardagi likvidlik va cheklangan mablag'lar tasnifi milliy tizim bilan solishtirildi [1][3]. Ikkinchidan, normativ tahlil usuli orqali "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun (ZRU–404), PQ–4611 qarori hamda PF–6079 farmonida belgilangan hisobot tizimidagi zamonaviy talablar baholandi [2][5]. Uchinchidan, kontent tahlil asosida milliy va xorijiy olimlar

(Xaydarov, Kozlova, Tkachenko va boshqalar)ning ilmiy fikrlari tizimlashtirilib, pul mablagʻlari hisobidagi turfa yondashuvlar interpretatsiya qilindi [4].

Tadqiqot doirasida "NAMANGANDONMAXSULOTLARI" AJ hisobot ma'lumotlari bo'yicha amaliy tahlil o'tkazildi. Bu ma'lumotlar pul mablagʻlarining o'sish dinamikasi, tuzilishi va faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishini baholash imkonini berdi. Tahlil jarayonida milliy schyotlar rejasi bo'yicha 5000–5700 guruh schyotlari, xalqaro amaliyotda esa "cash and cash equivalents" moddalari o'rtasidagi muvofiqlik darajasi aniqlandi. Shu bilan birga, pul mablagʻlarining cheklangan va cheklanmagan tavsifiga oid ma'lumotlar etishmasligi amaldagi hisob tizimining asosiy kamchiligi sifatida qayd etildi.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud: ma'lumotlar faqat bir sanoat korxonasi misolida tahlil qilingan, shu sababli barcha tarmoqlar uchun umumlashtirish ehtiyoqlikni talab etadi. Shu bilan birga, ayrim yillar bo'yicha hisobotlar agregat ko'rinishida taqdim etilgani tahlil chuqurligini qisman chekladi. Shunday bo'lsa-da, ish natijalari milliy buxgalteriya tizimini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ishonchli empirik asos bo'lib xizmat qiladi [1][2][5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning amaliy qismida "NAMANGANDONMAXSULOTLARI" AJning 2020–2024 yillar davridagi pul mablagʻlari hisoboti tahlil qilindi.

Tahlil qilishdan maqsadi — milliy standartlar asosida shakllantirilgan ma'lumotlarni xalqaro talablar bilan taqqoslab, pul mablagʻlari tuzilishidagi o'zgarishlar va ularning likvidlik darajasiga ta'sirini baholash.

1-jadval.

"NAMANGANDONMAXSULOTLARI" AJ pul mablagʻlari tarkibining nisbiy ulushi (%)

Ko'rsatkichlar nomi	2020 yil	2022 yil	2024 yil	O'zgarish (+/-)
Kassadagi pul mablagʻlari	0,8	0,5	0,7	–0,1
Hisob-kitob schyotidagi mablagʻlar	13,5	15	22,1	8,6
Chet el valyutasidagi mablagʻlar	0	1	0,9	0,9
Boshqa pul ekvivalentlari	85,7	83,5	76,3	–9,4

Manba: tadqiqot hisob-kitoblari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, hisob-kitob schyotidagi mablagʻlar ulushi 13,5 foizdan 22,1 foizgacha oshgan bo'lsa-da, pul ekvivalentlari ulushi qisqargan. Bu holat xalqaro amaliyotdagi tendensiya bilan bir qadar uyg'un, chunki pul ekvivalentlari qisqa muddatli likvid aktivlarga transformatsiyalanmoqda [1][5]. Shu bilan birga, chet el valyutasidagi mablagʻlar hajmidagi o'sish korxonaning

tashqi iqtisodiy faoliyati kengayganidan dalolat beradi. Bu o'zgarishlar pul mablag'lari boshqaruvini optimallashtirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar samaradorligini ifoda etadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy buxgalteriya tizimida pul mablag'larini hisobga olish mexanizmi hali xalqaro standartlar darajasiga to'liq etmagan. Ayniqsa, IAS 7 talab qiladigan "restricted cash" (cheklangan mablag'lar) kategoriyasining milliy balansda alohida aks etmasligi axborotning shaffofligi va to'g'ri talqin etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [4]. Shu sababli, kelgusida hisobot shakllariga cheklangan mablag'larni ajratib ko'rsatish amaliyotini joriy etish zarur.

Shuningdek, tahlil jarayonida 5600 ("Pul ekvivalentlari") va 5800 ("Qisqa muddatli investitsiyalar") schyotlari o'rtasidagi ma'lumotlar takrorlanishi qayd etildi. Bu holat ma'lum bir iqtisodiy operatsiyani qaysi schyotda aks ettirish haqida noaniqlikni yuzaga keltiradi. Mazkur holatni bartaraf etish uchun 21-sonli BHMS mazmuni xalqaro IAS 7 bilan uyg'unlashtirilishi tavsiya etiladi [1][3][4]. Bunday yondashuv pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotning ishonchliligini oshirish va moliyaviy qarorlar qabul qilishni ilmiy asosda ta'minlash imkonini yaratadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy buxgalteriya tizimida pul mablag'lari hisobini yuritishda xalqaro standartlardan farq qiluvchi metodologik kamchiliklar mavjud. Jumladan, 5600 ("Pul ekvivalentlari") va 5800 ("Qisqa muddatli investitsiyalar") schyotlari o'rtasidagi vazifaviy chegaralar aniq belgilanmagani, "restricted cash" (cheklangan mablag'lar) tushunchasining hisobot shakllarida aks etmasligi va pul ekvivalentlarini baholash mezonlarining aniqlashtirilmagani natijada axborotning ishonchliligi va taqqoslanish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, milliy hisobot tizimida likvid aktivlar haqidagi ma'lumotlarning agregat shaklda berilishi korxonalarning moliyaviy barqarorligini chuqur tahlil qilishni qiyinlashtirmoqda.

Namangan viloyatidagi "NAMANGAN DONMAXSULOTLARI" AJ misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, korxona pul mablag'lari hajmi va tarkibidagi ijobiy o'zgarishlar likvidlik darajasini oshirgan bo'lsa-da, xalqaro amaliyotda qabul qilingan terminologiya va prinsiplarning milliy tizimga to'liq integratsiyalanmagani bu jarayon samaradorligiga to'sqinlik qilmoqda.

Mamlakatda moliyaviy hisobot tizimini raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar (PF-6079, PF-60) doirasida pul mablag'lari hisobi va hisobotini IAS 7 talablariga muvofiqlashtirish zarur. Bu esa axborotning tahliliy qiymatini oshirish, foydalanuvchilarga qulaylik yaratish va xalqaro investorlarga nisbatan ishonchni mustahkamlash imkonini beradi.

Amaliy jihatdan, pul mablag'larini hisobga olishda cheklangan va cheklanmagan mablag'larni milliy hisobot shakllarida alohida ajratish, 21-sonli BHMSni qayta ko'rib chiqib, 5600 va 5800 schyotlar bo'yicha aniq hisob yuritish qoidalarini belgilash, shuningdek, IAS 7 va IFRS 9 standartlariga mos yagona baholash mezonlarini ishlab chiqish muhimdir. Bundan tashqari, "Raqamli O'zbekiston —

2030” dasturi doirasida moliyaviy hisobotlarni elektron formatda integratsiyalash va avtomatlashtirilgan tekshiruv tizimini joriy etish zarur. Shu bilan birga, korxonalarda pul mablag‘lari harakatini tahlil qilish va prognozlash uchun analitik modullar hamda sun‘iy intellekt asosidagi algoritmlar ishlab chiqilishi, ularning amaliyotga joriy etilishi buxgalteriya axborotining aniqligi va nazorat samaradorligini sezilarli oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2020.02.24). PQ-4611 — Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar. LEX.UZ
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2016.04.13). “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” (ZRU-404). LEX.UZ\
3. Moliya vazirligi buyrug‘i (2002.12.27), Adliya ro‘yxati №1209 (2003.01.24). Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari. LEX.UZ
4. Xaydarov, A.R. (2021). *Milliy buxgalteriya hisobida xalqaro standartlarga o‘tish muammolari*. Moliya va hisob jurnali, №3, 45–52.
5. Prezident Farmoni (2020.10.05). PF-6079 — “Raqamli O‘zbekiston—2030”. LEX.UZ
6. Prezident Farmoni (2022.01.28). PF-60 — 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi. LEX.UZ
7. Umurzaqov D. Biznesda amaliy buxgalteriya hisobi. Darslik. –N.: Sunrise-pro, 2024. – 379 b.
8. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO‘NALISHLARI. Journal of new century innovations, 74(2), 65-70.
9. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVASION FAOLIYATNING MOLIYAVIY TA‘MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 142-146.
10. Xolmirzayev, U. B. (2024). Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(6).
11. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo‘llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent–2023.
12. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).